



METHODS OF TEACHING STUDENTS TO CREATE COMPOSITIONAL IMAGES IN HIGHER EDUCATION CLASSES

Yusupova Shoxista Alimjanovna

Senior Lecturer, Department of Art Studies, Gulistan State Pedagogical Institute

Email: yusupovashoxista32@gmail.com

Annotation: *This article discusses the important role and significance of composition in all higher education classes, providing a general understanding of its main principles and compositional tools. It offers insights into the essential role of composition in visual arts genres during the educational process. The article also emphasizes that the study of composition is a crucial foundation for reinforcing practical tasks in drawing and painting courses within the visual arts curriculum.*

Keywords: *composition, rhythm, spatiality, dynamics, existence, statics, nature, imagination, memory, genre, skill, creativity, frontal.*

OLIIY TA'LIM MASHG'ULOTLARIDA TALABALARDA KOMPOZITSION TASVIRLAR ISHLASHGA O'RGATISH YO'LLARI

Yusupova Shoxista Alimjanovna

Guliston davlat pedagogika instituti, "San'atshunoslik" kafedrasida katta o'qituvchisi

e-mail: yusupovashoxista32@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada kompozitsiyaning oliy ta'limning barcha mashg'ulotlarida muhim o'rni va ahamiyati, umumiy tushuncha, uning asosiy qonun-qoidalari, kompozitsiya vositalari, talabalarga mashg'ulotlar jarayonida ta'lim berishda tasviriy san'at janrlarida kompozitsiyaning muhim o'rni haqida umumiy ma'lumotlar berib o'tilgan. Kompozitsiya fani tasviriy san'at turkumidagi qalamtasvir va rangtasvir fanlaridagi bajariladigan amaliy vazifalarni mustahkamlashga muhim asosi ekanligi ko'rsatil berilgan.*

Kalit so'zlar: *kompozitsiya, ritm, fazoviy, dinamika, borliq, statistika, natura, tasavvur, xotira, janr, mahorat, ijod, frontal.*

Tasviriy san'atda kompozitsiya lotincha so'zdan olingan bo'lib, "Tuzish", "Birlashtirish" degan ma'noni bildiradi. Badiiy obrazni yaratishda albatta kompozitsiya asosiy hisoblanib, rassom, ijodkordan ko'p yillik tajriba, mehnat talab qiladi. Kompozitsiyada rasm chizishda o'ziga xos qonun-qoidalari, usullari, vositalari bo'ladi. Kompozitsiyaning qonun-qoidalariga dinamika, statistika va oltin kesim (uchdan biri) tushunchalari fanga kiritilgan bo'lib, keyinchalik vaqt o'tishi bilan kompozitsiya tushunchasi bilan birgalikda, tasviriy san'atda metafizik rangtasvir san'ati ham rivojlandi. Albatta, rangtasvir san'atida ham



kompozitsiyani chizish orqali undagi dinamika va statika tushunchalariga ahamiyat bergan holda, asar yaratish zarur. Rassom chizayotganda harakatlarni tasvirlab asar yaratsa, dinamika deyiladi. Agar yaratilgan asar tinch holatda bo'lsa, statika deyiladi. Undan tashqari, kompozitsiyaning usullari ham mavjud bo'lib, ritm, muvozanat, syujetli kompozitsiya markazi, simmetriya va assimmetriya hisoblanadi. Kompozitsiya element qismlari ketma-ket takrorlanib kelsa, ritm hosil bo'ladi. Ritm chizilgan asarda harakatini ifodalab, kompozitsiya ma'no-mazmuni, mohiyati aks etadi. Kompozitsiya usullaridan yana biri bu muvozanat asosiy hisoblanib, oliy ta'lim mashg'ulotlarining barchasida ijod qilish jarayonida o'rgatish kerak bo'ladi.

Kompozitsiyada simmetriya va assimmetriya usullari ham bo'lib, chizilgan rasmda o'ng va chap tomonlari teng bo'lib, tinch holatda ya'ni, statik holatda joylashgan bo'lsa, simmetrik kompozitsiyalar deb ataladi. Aksincha, asarda e'tibor bilan qaraganda, o'ng va chap tomonlari tenglashtirilmagan bo'lsa, u assimmetrik kompozitsiya deyiladi. Asaming kompozitsiya markazini topishda ham o'rganish oson bo'ladi. Talabalarning asosiy hatosi kompozitsiya markazini topishda qog'ozning o'rtasida joylashadi deb o'ylashadi. Biroq, kompozitsiya markazi qog'ozning yoki matoning xohlagan tomonida asarning ma'no-mazmunidan kelib chiqqan holda joylashtirishi mumkin.

Talabalarning ijod qilish qobiliyatlarini oshirish, ularning kompozitsiya yaratish mashg'ulotlarida rasm chizishi uchun nazariy bilimlarni egallashlari lozim bo'ladi. Albatta, talabalarga chizishni o'rgatishda pedagogik qobiliyat bo'lishi muhim hisoblanadi. Tasviriy san'atda kompozitsiya vositalariga rang va havo perspektivasi, rang, yorug' va boshqalar kiradi. Kompozitsiyada rasm chizishda eskizni chizib olib, keyin qalamtasvirda rasmni tugatib olsa, juda yaxshi bo'ladi. Chunki, birinchi qalamtasvirda komponovka, yordamchi chiziqlar, shtrixda kompozitsiyani dastlabki bosqichini tugatib, so'ng rangtasvirda matoga kompozitsiya bajarilsa, asarni chizishda perspektivalarni tomoshabinga aniq va to'liq chizilgan rasmning mazmuni ochib beriladi. Qalamtasvir tasviriy san'atning asosi bo'lib, unda mukammal chizgan rassom rangtasvir ustasiga aylanadi. Kompozitsiyaning qonun-qoidalari va usullarining barchasi kompozitsiyaning vositalariga kiradi va unga fazoviy kenglik va format ham kiradi.

Mashg'ulotlar jarayonida ayrim talabalar kompozitsiyada rasm chizishga qiynalishadi. Bunda kompozitsiyaning turlarini bilishlari, tushunchaga ega bo'lishlari lozim. Kompozitsiyaning uch turi bor bo'lib, hajmli kompozitsiya, frontal kompozitsiya va chuqur fazoviy kompozitsiyaga bo'linadi. Frontal kompozitsiyada relefli haykallar, rangtasvir, naqshlar va boshqalarni tasvirlab, rasm qog'ozga tekislik yuzasida chiziladi. Amaliy san'at buyumlari, yumaloq haykallar va boshqalardan iborat bo'lib, kompozitsiyada uch o'lchovda rasmlar hosil qilib, har tomondan qarash mumkin. Chuqur fazoviy kompozitsiyada uy xonasi, jamoat binolarining foesi, teatr sahnalari va boshqalar tasvirlanadi. Tasviriy san'at darsida kompozitsiya tushunchalarini yanada chuqurroq o'rgatish uchun suhbat metodi, ma'ruza metodlari va boshqalardan foydalanish mumkin.





Shuning uchun o'qituvchi pedagogik mahoratga va tajribaga ega bo'lsa, mavzularni talabalar aniq va lo'nda tushinadi. Kompozitsiyani o'rganishda talabalarni yanada tasviriy san'atning barcha mashg'ulotlariga qiziqishini oshirish an'anaviy va noan'anaviy o'qitish yo'llaridan foydalanish tasviriy san'at darslarida talabalarni bu fanga bo'lgan bilimlarini oshirishda yanada natijalar berishini ko'rish mumkin. Talabalarning ijodkorlik qobiliyatida chizishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda motivatsion-qiziqarli taraflariga ham ahamiyat berish lozim. Tasviriy san'at darslarida talabaning maksimal faolligini oshirishda bilimni rivojlantirishiga faol ta'sir ko'rsatish tamoyili bo'lishi lozim. Ular dars davomida asta-sekin rasm chizishni o'rganib, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirib oladilar. Natijada talabalarning nazariy va amaliy bilimlari oshib, kompozitsiyada rasm chizishda tasavvur va xotirasi rivojlanib, rasm chizishga o'rganadilar.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim mashg'ulotlarida talabalarning kompozitsiya chizishda asosiy narsa kompozitsiya markazi matoda ikkinchi planda chiziladi. Kompozitsiyada birinchi plandagi narsalar asar markazini chiroyli chiqishiga xizmat qiladi. Tasviriy san'atda kompozitsiya chizishda natyurmort, manzara, portret va boshqa janrdagi kompozitsiyada rasm chizish orqali malakasi oshib boradi.

Shunday qilib, kompozitsiya chizishni o'rgatishda, tasviriy san'at o'qituvchisi talabalarning yanada bilimni oshirish uchun dars o'tishda:

- 1) onglilik va faollik;
- 2) ko'rgazmalilik;
- 3) tizimlilik va muntazamlilik;
- 4) mustahkamlik;
- 5) ilmiylik;
- 6) tushunarlilik;

7) nazariya va amaliyot birligi tamoyillaridan foydalangan holda darsni qiziqarli va pedagogik tajribalardan foydalangan holda dars o'tsa, talabalarning boshlang'ich savodxonligi, mantiqiy tafakkuri oshadi. Bu jarayonda esa o'qituvchi darsda pedagogik mahorati orqali mavzularni tushuntirishda darsda pedagogik tajribasi oshib boradi. Shuningdek, tasviriy san'at darslarida talabalarga kompozitsion tasvirda rasm chizishga o'rgatish murakkab bo'lib, o'qituvchi kompozitsiya mavzularini qiziqarli va tasavvurini yana ham oshirish orqali darsda mavzularni chuqur o'rgatishi bilan bilimni rivojlantirishi kerak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G ' . Abdurahmonov, Kompozitsiya. Toshkent-2019 yil.
2. SH.B.Nazirbekova, A.A.Berikbayev Tasviriy san'at tarixi. "Lesson-Press" nashriyoti. Toshkent- 2021.
3. Sh.A.Yusupova Tasviriy san'at to'garaklarining uslubiy asoslari. "Ilm Ziyozakovat".Toshkent-2023.





4. Юсупова, Ш. (2023). СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ, ПРИМЕНЯЕМЫЕ НА ЗАНЯТИЯХ КРУЖКОВ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫМ ИСКУССТВОМ. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(5), 267-273. <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I5Y2023N36>.

5. Alimjanovna Y. S. TOOLS AND CRITERIA OF COMPOSITION IN THE CREATIVE PROCESS OF FINE ARTS CLASSES OF UNIVERSITY SCHOOLS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2024. – Т. 5. – №. 02. – С. 48-58.

6. Shoxista Y., Oygul R. TASVIRIY SAN'ATDA NATYURMORT JANRINI TASVIRLASHDA KOMPOZITSIYANING O'RNI VA AHAMIYATI //Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 335-338.

7. Юсупова Ш. Tasviriy san'at to'garak mashg'ulotlarida qo'yiladigan zamonaviy pedagogik talablar //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 267-273.

8. Inoyatov, O. (2025). TEKISLIKLARNING O'ZARO PARALLELLIGI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(S/1), 495-500. <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI1Y2025N76>.

9. Хайров Р. З., Султанов А. А. ИНДИВИДУАЛЬНЫЙ ПОДХОД К УЧЕНИКАМ НА УРОКАХ ИСКУССТВА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА // Символ науки. 2020. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/individualnyy-podhod-k-uchenikam-na-urokakh-iskusstva-v-shkolah-uzbekistana> (дата обращения: 10.09.2025).

10. Юсупова, Шохиста Алимжановна, and Наби Пардабоевич Жумабоев. "ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДКОРЛИККА ЎРГАТИШ." Science and Education 2.2 (2021): 460-464.

11. Pardaboyevich J. N. O'QUVCHILAR IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALARNING O'RNI //WORLD OF SCIENCE. – 2023. – Т. 6. – С. 87-90.

12. Жумабоев, Наби. "THE NEED TO USE AESTHETIC VIEWS OF EASTERN THINKERS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences 4 (2024).